



GEOPOLITICS OF PAKISTAN: NEW TRENDS

Nilufar R. Narimanova

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: Narimanova.nilufar@bk.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: CPEC, Afghanistan, USA, Indo-Pacific Strategy, Central Asia, South Asia, China, Pakistan, Geopolitics.

Received: 11.05.23

Accepted: 13.05.23

Published: 15.05.23

Abstract: This article is devoted to the analysis of the position of the Islamic Republic of Pakistan in world politics and bilateral relations with major power centers in the modern geopolitical space. The article also highlights its role as a regional geopolitical center in matters of security and stability.

POKISTON GEOSIYOSATI: YANGI TENDENSIYALAR

Nilufar R. Narimanova

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: Narimanova.nilufar@bk.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: CPEC, Afg'oniston, AQSh, Hind-Tinch okeani strategiyasi, Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo, Xitoy, Pokiston, geosiyosat.

Annotatsiya: Ushbu maqola Pokiston Islom Respublikasining jahon siyosatidagi tutgan o'rnini hamda, zamonaviy geosiyosiy makonda katta kuch markazlari bilan ikki tomonlama aloqalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada uning mintaqaviy geosiyosiy markaz sifatida xavfsizlik va barqarorlik masalalaridagi roli yoritib berilgan.

ГЕОПОЛИТИКА ПАКИСТАНА: НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ

Нилуфар Р. Нариманова

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: Narimanova.nilufar@bk.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: КПЭЖ, Афганистан, США, Индо-Тихоокеанская стратегия, Центральная Азия, Южная Азия, Китай, Пакистан, геополитика.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу положения Исламской Республики Пакистан в мировой политике и двусторонних отношениях с крупными центрами силы в современном геополитическом пространстве. В статье также подчеркивается его роль как регионального геополитического центра в вопросах безопасности и стабильности.

KIRISH

So‘nggi o‘n yillikda dunyo hamjamiyati iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi, dunyodagi qashshoqlik darajasining oshishi va inson sog‘ligi uchun tahdidlar kabi global muammolarning yanada keskinlashuviga duch keldi. Xalqaro geosiyosiy maydonda Rossiya-Ukraina urushi va undan so‘ng paydo bo‘lgan keskin beqarorliklar vaziyatni yanada jiddiylashishiga olib keldi. Natijada geosiyosiy raqobatning va iqtisodiy proteksionizm yanada kuchayishi kuzatilmoqda. Shunday sharoitda tobora kuchaya borayotgan AQSh-Xitoy raqobati dunyoning ko‘pchilik siyosatchilari tomonidan yaqinlashib kelayotgan **«ikkinchi sovuq urush»** sifatida baholanmoqda. Bu raqobat bir-biriga mutlaqo zid keladigan tizimlar orqali boshqariladigan ikkita gegemon davlatni bir-biriga qarshi qo‘ymoqda. AQSh sobiq davlat kotibi Genri Kissenjer fikrlariga ko‘ra, bu raqobat AQSh va SSSR o‘rtasidagi urushdan ko‘ra ancha xavfli. Chunki u davrlarda hozirgi zamonaviy harbiy qurollar, rivojlangan texnologiyalar mavjud emas edi, sun‘iy intellekt rivoji esa yanada dahshatliroqdir. Bugungi kunda Osiyo AQSh- Xitoy raqobatining asosiy nishoniga aylanganligi mintaqaviy davlatlarni yana katta geosiyosiy tanlov oldiga keltirib qo‘ymoqda. Har ikkalasi bilan ham mustahkam aloqalarga ega bo‘lgan Pokiston Islom Respublikasi uchun bu tanlov yanada chuqur ahamiyat kasb etadi. Ichki beqarorliklar, chuqur iqtisodiy inqirozlar girdobiga tortilgan Pokistonning endilikda xalqaro maydondagi o‘z yo‘nalishini qayta belgilab olishiga to‘g‘ri kelmoqda.

ASOSIY QISM

Ushbu tadqiqotda qiyosiy, tarixiy va hodisa tahlil uslublaridan foydalanilgan. Mavzuni yoritish uchun siyosatchilar va yirik tahlil markazlari ekspertlarining fikrlari atroflicha o‘rganildi. Maqolada dolzarb muammolar va ularning muvofiq yechimlari taqdim qilingan.

1947-yilda mustaqillikka erishgan Pokiston Islom Respublikasining jahon siyosiyatida geostrategik joylashuvi, yadroviy salohiyati, shuningdek, mintaqa xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashdagi roli tufayli katta geosiyosiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Himalay tog‘lari va Arab Ko‘rfazi oralig‘ida joylashgan Pokiston maydon jihatdan dunyoda o‘ttiz beshinchi (796,100 km²) o‘rinda turadi. [1] Eng ko‘p musulmon aholi dunyoda Indoneziyadan so‘ng Pokistonda istiqomat qiladi.

Geografik joylashuvi:

Pokiston Markaziy va Janubiy Osiyo hamda Yaqin Sharq chorrahasida joylashganligi uni bu uchta mintaqa o'rtasidagi savdo va energiya oqimlari o'tadigan tabiiy tranzit nuqtaga aylantiradi. Bundan tashqari bu joylashuv Pokistonga mintaqaviy integratsiya jarayonlarida va Xitoy-Pokiston iqtisodiy koridori kabi loyihalarda asosiy hamkor bo'lish imkoniyatlarini taqdim etadi. Arab dengizi bo'ylab uzun qirg'oqlar mamlakatni yirik yuk tashish yo'llari va portlariga osongina bog'lanishini ta'minlaydi.



Pokistonning geografik joylashuvi

Pokiston bir vaqtning o'zida yadro arsenaliga ega bo'lgan Xitoy, Hindiston, shuningdek Eron va notinch Afg'oniston bilan chegaradosh hisoblanadi. Bu joylashuvda imkoniyatlar bilan birgalikda mamlakat xavfsizligiga *katta tahdidlar* ham mavjud. Xususan, mintaqaning eng beqaror davlati Afg'onistonning eng uzun chegarasi aynan Pokiston tomoniga to'g'ri kelib, 2670 km ni tashkil etadi. Ikkala davlat o'rtasidagi «Dyurand chizig'i» bo'ylab chegara masalalarining hal etilmaganligi yillar davomida Pokistonning Afg'oniston ichki va tashqi ishlariga bevosita va bilvosita aralashib kelishini ta'minladi. [2] «Tolibon» harbiy-siyosiy harakat sifatida shakllanishida aynan Pokiston rahbariyati hal qiluvchi rol o'ynadi. Shu bilan birgalikda ushbu chegaralarning aniq belgilab olinmaganligi hududda terrorchi guruhlarining o'rnashib olishiga zamin yaratdi. Global terrorizm indeksi -2023 natijalariga ko'ra, terrorizmdan eng ko'p zararlangan davlatlar ro'yxatida Afg'oniston birinchi, Pokiston esa oltinchi o'rinni egallagan. Bundan tashqari chegaralanish natijasida ikkiga bo'lib yuborilgan pushtun qabilalari Pokistonning hududiy yaxlitligiga xavf soluvchi omil hisoblanadi.

Yadroviy kuch:

Pokistonda hozirda tahminan 165 ta jangovar kallak zaxirasi mavjud bo'lib, dunyodagi oltinchi yirik yadro arsenaliga ega hisoblanadi.[3] Ilk harakatlar 1970- yillarda Hindiston yadro sinovlaridan ko'p o'tmay boshlagan. Bu jarayonda AQSh va Xitoy Pokistonga zaruriy material va jihozlardan torib texnik muhandislargacha turli darajadagi yordam ko'rsatib turgan. 1998- yilda birinchi test sinovlarini o'tkazgan Pokiston o'zini yadro quroliga ega davlat deb e'lon qildi.

Pokiston yadro arsenali uchta jihati bilan muhim hisoblanadi:

– **Birinchi**dan, bu eng katta mintaqaviy dushmani Hindistonga qarshi ishonchli to'siq va hududiy yaxlitligining garovi bo'lib xizmat qiladi.

– **Ikkinchi**dan, yadro quroliga ega bo'lishi nodavlat subyektlar tomonidan doimiy tahdid va mintaqaviy beqarorliklar bilan yuzma-yuz turgan Pokistonning milliy xavfsizligi uchun juda muhimdir.

– **Uchinchi**dan, yadroviy salohiyati tobora o'sib borayotgan Pokiston Yadroviy qurollarni tarqatmaslik to'g'risida shartnoma (NPT) va Yadroviy sinovlarni keng qamrovli taqiqlash to'g'risidagi (CNTBT) shartnomalarga a'zo emas. Bundan tashqari bir qator G'arb davlatlari, ayniqsa AQSh Pokistondagi beqarorliklar va terrorizm xurujlarining yadro quroliga katta xavf ekanligidan xavotirda. AQSh prezidenti Jo Bayden 2022-yil oktyabr oyida Demokratik partiya Kongress saylovoldi qo'mitasining qabulida yadro quroliga ega bo'lgan notinch Pokiston dunyo uchun eng katta xavflardan biri, deya ta'kidlagan edi.[4]

Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdagi roli:

Aholi soni jihatidan dunyoda beshinchi o'rinda turadigan, shuningdek dunyodagi ikkinchi eng yirik musulmon davlatlar sifatida Pokiston ham xalqaro miqyosda, hamda musulmon dunyosida o'z o'rniga ega hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Janubiy Osiyoda yadro arsenaliga ega bo'lgan yagona musulmon davlat– Pokiston mintaqaning muhim aktorlaridan biridir. Shu sababdan sharqda oralarida azaliy qarama-qarshiliklar mavjud bo'lgan Hindiston, g'arbda mintaqaning eng notinch davlati Afg'oniston bilan chegaradosh bo'lgan Pokiston uchun milliy xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash yo'lida mintaqaviy tinchlik va barqarorlikka erishish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari mintaqada katta kuchlar, xususan AQSh va Xitoy manfaatlari to'qnashuvi, qo'shni mamlakatlar o'rtasidagi proksi urushlar vaziyatni yanada keskinlashishiga olib keladi. Mintaqa uchun eng katta tahdid bu, shubhasiz, Afg'onistondir. Sentyabr voqealaridan so'ng ekstremistik guruhlariga qarshi kurashda AQSh va G'arbnig tayanch hamkoriga aylangan Pokiston uyushtirilgan harbiy operatsiyalar davomida qimmatli razvedka ma'lumotlari va moddiy-texnik jihatdan katta yordam ko'rsatgan.

Katta kuch markazlari bilan o'zaro aloqalar.

Xitoy-Pokiston munosabatlari: o'ziga xos mavhumlik

1951- yilda asos solingan Xitoy-Pokiston munosabatlari Osiyo geosiyosatida alohida markaziy rolga ega. 1962- yilda Xitoy-Hindiston chegarasida ro'y bergan tartibsizliklar har ikkala davlat uchun ham umumiy tahdidga aylangan Hindistonga qarshi birlashishga bo'lgan zaruratni paydo qildi. Lekin Xitoy uchun bu munosabat hech qachon beg'araz kechmagan. (Gudzon instituti tadqiqotchisi Aparna Pande «*Xalqaro maydonda Xitoyning hech qanaqa do'stlari va ittifoqchilari yo'q, faqatgina Xitoydan qarzdor mamlakatlar bor*», degan fikrda. Ma'lumki, Xitoy Pokistonning ham asosiy kreditorlaridan biri bo'lib, Pokiston qarzlarning deyarli 30 milliard dollari unga tegishli.) Buning bir qator sabablari mavjud:

– **Birinchi**dan, Xitoy Hindistonni o'ziga teng yoki asosiy strategik tahdid sifatida ko'rmagan. 1965 va 1971-yillarda Hindiston-Pokiston urushlarida Xitoy kutilgan yordamni bera olmadi.

– **Bundan tashqari**, Abdul Qodir Xon to'g'risidagi xalqaro noroziliklardan so'ng Xitoyda Pokistonning yadroviy davlat maqomi bilan bog'liq xavotirlar paydo bo'lgan edi.

– **Ayni paytda** Pokiston terrorchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga boshpana berishda ham ayblanganligi, Xitoyda uzoq vaqtlardan beri uyg'urlar orasidagi islomiy jangarilar faoliyatining Pokiston va Afg'onistondagi jangarilar bilan gumon qilingan aloqalari Xitoyning xavotirlarini yanada kuchaytirdi. Buni Xitoyning 1999-yilda Kargil urushi va 2008-yilda Mumbaydagi teraktlar paytida Pokiston bilan uzoqlashgan munosabatlarida ko'rish mumkin edi.

Munosabatlarning keyingi bosqichi: manfaatlar o'zgarganda:

Biroq, 2000-yillar o'rtalariga kelib ikkita omil asosiy o'ringa chiqdi. Ulardan **biri** AQSh va Hindiston munosabatlaridagi ijobiy o'zgarishlar bo'lsa, **ikkinchisi** Xitoyning xalqaro tartibot bilan bog'liq yangicha ambitsiyalari edi. Xitoy «Bir makon, bir yo'l» loyihasining asosiy bo'g'ini bu Xitoyning strategik ahamiyatga ega shimoli-g'arbiy Shinjon viloyatini Pokiston janubidagi Gvadar portiga bog'lashni maqsad qilgan Xitoy-Pokiston iqtisodiy koridori (CPEC) edi. Turli tashabbuslarni, jumladan, infratuzilma, energetika, iqtisodiy zonalar va strategik Gvadar portini rivojlantirishni o'z ichiga olgan 62 milliard dollarga teng bo'lgan ushbu loyiha «Bir makon, bir yo'l» loyihasini muvaffaqiyatga eltuvchi kalit hisoblanadi. Bu ikki omil Pokiston hozirda Xitoy uchun muhim strategik hamkor ekanligini anglatadi.

Aslida Xitoyning Pokiston bilan aloqalarining bunaqa mujmal tus olishi sababini anglash qiyin emas: har doim o'z geiqtisodiy manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadigan Xitoy uchun bir vaqtning o'zida ham iqtisodiy, ham siyosiy inqirozlarni boshidan kechirayotgan Pokiston hamkorligida katta loyihalarni amalga oshirish xavfli tavakkal sifatida qaraladi. Bundan tashqari quyidagi qator muammoli *jihatlar* ham mavjud:

— Shinjon viloyatidagi jangarilarning Pokiston jangarilari bilan aloqalari;

– Pokistonda ishlayotgan xitoylik fuqarolarning terroristik hujumlar nishoniga aylanishi;

- Pokistonda CPEC loyihalari ijrosiga vaqti vaqti bilan ko‘rsatiladigan qarshiliklar;
- Kashmir masalasi bo‘yicha Xitoyning ehtiyotkorona xatti-harakatlari.

AQSh-Pokiston munosabatlari

AQSh va Pokiston o‘rtasidagi munosabatlarning so‘nggi 20 yili bevosita Afg‘oniston bilan bog‘liq hisoblanadi. Sentyabr voqealaridan keyin ikkala mamlakat o‘zaro hamkorlikda ko‘plab operatsiyalar amalga oshirishdi. Biroq so‘nggi uch yilda o‘zaro aloqalardagi susayishni kuzatish mumkin. Sovuq urush davridan buyon yaqin strategik hamkorlar hisoblangan AQSh va Pokiston aloqalarining salbiy tomonga o‘zgarishiga bir qancha omillar sabab bo‘lgan edi:

– Avvalo, Afg‘onistonda Pokiston qo‘llab-quvvatlovchi Tolibon hukumati o‘rnatilishi va AQShning Afg‘oniston hududidan chiqib ketishi;

— Buning ortidan Rossiya Ukrainaga bostirib kirgan kuni Pokiston bosh vaziri Imron Xonning Moskvaga qilgan tashrifi;

— Nihoyat, Imron Xonning hokimiyatdan chetlashtilishida AQShning muxolifat bilan til biriktirganligi to‘g‘risida ayblovlari.

AQShning asosiy ittifoqchisi bo‘lib kelgan Pokiston 2022-yilgi AQSh Milliy xavfsizlik strategiyasida tilga olinmagan. [5] 48 sahifalik hujjatda Janubiy va Markaziy Osiyo mintaqasidagi terrorizm va boshqa geostrategik tahdidlar haqida so‘z boradi, biroq yaqin o‘tmishdan farqli o‘laroq, Pokiston bu tahdidlarga qarshi kurashish uchun zarur bo‘lgan ittifoqchi sifatida tilga olinmagan.

Biroq Pokistonning Xitoy bilan yanada ilgarilab borayotgan aloqalari AQShni bu borada butunlay befarq qoldirmaydi. Xususan, Pokistonning iqtisodiy va xavfsizlik sohasida Xitoyga qaramligi ortib borayot bir paytda AQSh Islomobod bilan 450 million dollarlik F –16 jangovar samolyotlar to‘g‘risidagi kelishuvini imzolashi bejizga emas, albatta. [6] Bundan tashqari, Washington shu paytgacha Pokistondagi suv toshqini qurbonlari uchun 66 million dollar yordam ajratgan.

AQShning Pokistonda juda **muhim manfaatlari mavjud:** mintaqada Xitoy va Rossiya ta’siri kamaytirish, Tolibon, shuningdek, yadroviy xavfsizlik masalalarini faqatgina Hind-Tinch okeani strategiyasi orqali hal qilishning iloji yo‘q. Shu nuqtai nazardan, AQShning Afg‘onistondan chiqib ketishi Pokistonni u uchun mintaqadagi yagona alternativga aylantirdi.

XULOSA

Yuqoridagilardan ma’lumki, AQSh Pokiston bilan munosabatlarini avvalgidek yuqori darajaga ko‘tarishni ko‘zlamagan. Lekin strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Pokistonni to‘liq *Xitoy qaramog‘iga o‘tib ketishini* xohlamaydigan AQSh endilikda Pokiston bilan muvozanatlashgan mo‘tadil siyosat olib borishni rejalashtirgan.

Ichki iqtisodiy va siyosiy bo'hronlar avj olayotgan bir pallada Pokiston uchun ham AQSh bilan yaxshilangan munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy qiyinchiliklar, mamlakat yaxlitligiga ichki va tashqi tahdidlarning kuchayishi Vashington bilan yanada yaqinroq aloqalarni talab etadi. Ayni damda Pokistonga nisbatan mavhum va ehtiyotkor siyosat yuritayotgan Pekin Pokiston uchun yagona tanlov bo'la olmaydi. Aslid AQSh va Xitoy o'rtasidagi raqobat yangi bosqichga ko'tarilayotgan bir pallada har ikkala tomon bilan ham **muvozanatlashgan siyosat** yuritish Pokiston uchun eng oqilona tanlov hisoblanadi: ichki inqirozlarni bartaraf etish uchun Xitoyning moliyaviy yordamlari va mintaqaviy va milliy xavfsizligi uchun AQSh bilan yaqin hamkorlik. Bunaqa ehtiyotkor tashqi siyosat yuritish siyosiy-iqtisodiy qiyinchiliklar girdobiga tortilgan Pokistonni katta kuch markazlari raqobatining salbiy ta'sirlaridan saqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. S. Bo'ronov. Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston geosiyosati. – T.: “EFFECT-D”, 2021. –B 33
2. World data. Pakistan:country data and statistics. <https://www.worlddata.info/asia/pakistan/index.php>
3. 10 world nuclear forces. <https://www.sipri.org/yearbook/2021/10>
4. Al Jazeera. US expresses 'confidence' in Pakistan to keep nuclear arms secure. <https://www.aljazeera.com/news/2022/10/18/us-expresses-confidence-in-pakistan-to-keep-nuclear-arms-secure>
5. White House. National security strategy. <https://www.whitehouse.gov/wp-content/uploads/2022/10/Biden-Harris-Administrations-National-Security-Strategy-10.2022.pdf>
6. Reuters. «India tells U.S. it is concerned about package for Pakistan F-16 jets». <https://www.reuters.com/world/asia-pacific/india-concerned-over-us-package-pakistan-fighter-jets-2022-09-14/>